

**"QURILISHDA GEODEZIK O'LCHOV ISHLARINI TAHLIL QILISH" (3-MIS BOYITISH
FABRIKASI) MISOLIDA**

Mirmaxmudov E.R
Abduraimov D.A

Annotatsiya: Ushbu maqolada Olmaliq shaxrida qurilayotgan 3-Mis boyitish fabrikasi qurilishida ijro etuvchi tadqiqotga qo'yiladigan asosiy talablar keltirilgan. Muxandislik qidiriv ishlarini topografik va geodezik ta'minlash uchun zarur hujjatlar ro'yxati tavsiflanadi. Asosiy e'tibor qurilish maydonining topografik rejalarini va xaritalariga qaratiladi. Tuproq ishlari hajmining aniqligini va qurilish obyektlarining aniqligini nazorat qilish uchun geodeziya tarmog'ining punktlaridan foydalanish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: topografik xarita, plan, geodezik tarmoq, koordinatalar, qurilish maydonini chizmasi.

**«АНАЛИЗ ГЕОДЕЗИЧЕСКИХ ИЗМЕРЕНИЙ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ» (З-МЕДНО-
ОБОГАТИТЕЛЬНАЯ ФАБРИКА)**

Мирмахмудов Э.Р
Абдураимов Д.А

Аннотация: В данной статье представлены основные требования к исполнительным изысканиям при строительстве строящейся 3-й медеобогатительной фабрики в городе Алматык. Описан перечень необходимых документов для топографо-геодезического обеспечения инженерно-изыскательских работ. Основное внимание уделено топографическим планам и картам района строительства. Предлагается использовать точки геодезической сети для контроля точности объемов земляных работ и точности объектов строительства.

Ключевые слова: топографическая карта, план, геодезическая сеть, координаты, чертеже объекта строительства.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ko'plab islohotlar qurilish sohasini ham chetlab o'tmadni. Zamonaviy qurilishning asosiy vazifalarini belgilab beruvchi qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Zamonaviy geodeziya asboblari yordamida amalga oshirilgan o'lchovlar nafaqat mehnat unumdarligini oshirish, balki o'lchovlarning aniqligini bir necha barobar oshirish imkonini beradi. Shuni inobatga olgan holda, ko'p qavatli binolar va inshoatlarni qurish, qurilishda keng ko'lamlari va yuqori aniqlikdagi geodeziya ishlarini takomillashtirish va loyihaviy geometrik parametrlarni uzatish qurilish normalari va qoidalari doirasida amalga oshirilishi kerak.

Qurilish jarayonida geodeziya ishlarini amalga oshirish, yangi zamonaviy asboblardan foydalanish va batafsil rejalshtirish usullarini o'rganish, eng yaxshi usulni tanlash va uni qurilishda amalga oshirish muhim masalalar hisoblanadi. Ulardan eng muhimi ko'p qavatli binolar va inshoatlarni loyihasini ko'chirish va batafsil rejalshtirishdir.

Shu munosabat bilan Toshkent viloyati Olmaliq shaxrida “Olmaliq tog'-kon metallurgiga” zavodining 3-Mis boyitish fabrikasini qurish ishlari olib borish rejalshtirilgan. Qurilish ishlarini amalga oshirish jarayonida avvalambor geodezik kuzatuv (Rekaginasirovka) va o'lchov ishlari olib borish muhim hisoblanadi. Qurilish va montaj ishlarini amalga oshirishdan avval buyurtmachi tomonidan qurilish loyixasi va geodezik tayanch punktlari taqdim etilgan. Geodezik tayanch punktlari choyda o'rganilib, tayanch punktlarining aniqligi o'rganib chiqiladi.

Bunga qadar Toshkent viloyati Olmaliq shaxrida “Olmaliq tog'-kon metallurgiga” zavodining 1 va 2-Mis boyitish fabrikalari qurilib, foydalanishga topshirilgan va amalda ishlab turibdi. 3-Mis boyitish fabrikasining qurilishidan maqsad esa hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar asosida qazilma boyliklarini yanada sifatli va samarali qayta ishlash hisoblanadi. Shu munosabat bilan 3-Mis boyitish fabrikasida chet elda ishlab chiqarilgan dastgohlar qo'llaniladi, bu esa o'z navbatida yuqori aniqlikka ega bo'lgan, zamonaviy geodezik o'lchov apparatlaridan (elektron Taxeometrlardan) foydalanish kerakligini ko'rsatadi. Zamonaviy geodezik o'lchov apparatlarining afzalligi shundan iboratki, ular yordamida bir vaqtning o'zida balandlik, masofaviy aniqlik, kenglik va uzoqlik, gorizontal burchaklari xatoliklarini bir vaqtning o'zida kuzatib raxlil qilish imkoniyatlari mavjud. Bu esa hozirgi kunda chet el talablari asosida qurilayotgan zamonaviy qurilishda geodezik o'lchov ishlarining tezligini va sifatini sezilarli drajada oshiradi.

Bino yoki inshootning loyixasini joyda o'rnatish - bu reja va jabhaning ishchi chizmalari asosida loyihaning geodezik o'lchovlaridan foydalangan holda qurilayotgan inshootning xarakterli nuqtalarining joyda maxsus belgi yoki temir qoziqlar bilan o'rnatilishidir.


U murakkab tuzilmalar uchun rejalarini o'z ichiga olgan bosh rejadan foydalanadi; yo'llar va yer osti kommunal tarmoqlarining rejasi va profili; vertikal joylashtirish loyihasi; montaj chizmalari va boshqalar loyihani yer bo'ylab harakatlantirganda, loyihaning geometrik asosi rejalshtirish o'qi bo'ladi, bu o'qga nisbatan ushbu chizmalar konstruktiv qismlarning o'lchamlarini ko'rsatadi. Asosiy o'q geodezik nuqtalar bilan bog'langan bo'ladi.

Birinchi bosqichda asosiy rejalshtirish ishlari geodeziya punktlariga nisbatan olib boriladi, bog'lashlar asosida asosiy rejalshtirish o'qining yerdagi holati aniqlanadi va maxsus belgi bilan yerga o'rnatiladi. (1-rasm)

Ikkinci bosqichda asosiy o'qga nisbatan bo'ylama va ko'ndalang o'qlar qurilishni batafsil rejalshtirish joyida o'rnatiladi, nuqtalar va tekisliklar esa tekis yuzada belgilanadi.

O'rnatish ishlarining uchinchi bosqichi geodezik uskunalar bilan kuzatib boriladi va qurilish montaj ishlari yakunlanganidan so'ng fakt xolati bo'yicha xujjalashtiriladi. Poydevor qurilishi tugallangach maxsus uskunalar loyiha holatiga keltiriladi.

Qurilish maydonchasida rejalarshirish ishlari geodezik ta'minlash maqsadida qurilish tarmog'ini qurish keng tarqalgan bo'lib, qurilish tarmog'i nuqtalarini tekislash va ularning



balandligini aniqlash orqali balandliklar uchun asos sifatida foydalanish mumkin.

1-rasm. Ma'muriy bino poydevor osti (котлован) rejasি

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shu narsa malumki, hozirgi kunda rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti talablari va chet el talablariga mos kela oladigan zamonaviy qurilish soxasini rivojlantirish hamda chet el qurilish korxonalari bilan raqobat qila olish uchun qurilishda geodezik soxa vakillarini zamonaviy qurilish apparatlari va yangicha metodlar bilan chuqur tanishtirish dolzarb mavzulardan bo'lib qolmoqda. Bizning hozirgi kunda 3-Mis boyitish fabrikasi qurilishida zamonaviy geodezik apparatlar bilan olib borayotgan ishimiz shu soxa rivojlanishiga qisman o'z hissasini qo'shadi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Avchiev Sh.K., Toshpo'latov S.A. Geodeziya muhandisi: o'quv qo'llanma. 1, 2 - qism. - Toshkent, 2000 yil.
- Zaitsev A.K., Marfenka S.V. Tuzilmalarning deformatsiyalarini o'rganishning geodezik usullari: - M.: Nedra. 1991 yil.
- Levchuk G.P., Novak V.E., Lebedev N.N. Amaliy geodeziya: tadqiqot va muhandislik inshootlarini qurishda geodeziya ishlari - M.: Nedra, 1983 yil.
- Viduev. N.G., Rakitov D.I. Geodeziyani muhandislik va qurilish biznesida qo'llash: M.: Nedra, 1979.